

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA FOLKLOR AN'ANALARI

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayon ekanligi haqida, Sharq adabiyoti tarixining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an'ana muhim o'rin egallashi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, xalq, taraqqiyot, folklor, san'at, musiqa, badiiy san'at, doston, ertak.*

Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytsak, og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan. Biror bir xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning folkloriga nazar solish lozim bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunasi bor-yo'g'i og'zaki ijro etilgani uchungina emas, balki og'zaki o'zlashtirilib, og'zaki ijro etilib, og'zaki tarzda meros qoldirilishi, boshqacha aytganda, har galgi ijro jarayonida qayta yaralishi bilan farqlanib turadi. Folklorshunos olimlar ta'kidlaganidek folklorida qo'shiq yo'q, balki qo'shiqning ijro holati, ijro jarayoni mavjud. Bu fikrni xalq ijodining boshqa janrlariga ham tadbiiq etish mumkin.

G'urur bilan aytishimiz mumkinki, bizda dunyo folklori namunalari bilan bemalol bellasha oladigan doston, ertak, maqol-matal, qo'shiq, afsona va rivoyatlarimiz bor. Bugungi kungacha yozib olingan dostonlar sonining o'zi 400 tadan oshib ketadi. Boshqa janr namunalari variantlari esa ko'plab jildlarni tashkil etadi. Bu rostakamiga chinakam ulkan xazinadir. Bunday bebaho meros hamma xalqqa ham nasib etgan emas. Shunday ulkan og'zaki merosga ega xalqning yozma adabiyoti qanday bo'lishini tasavvur qilavering.

Har qanday san'atning boshi folklorida degan gap bugun paydo bo'lgan emas. U uzoq yillik hayotiy kuzatish, ilmiy tajribaning hosilasi. Haqiqatdan ham tasviriy, hunarmandchilik, musiqa, raqs, badiiy va hokazo san'atlarning avvali-boshi, yuzaga kelishi bevosita xalq og'zaki ijodiga, xalqning ilk tasavvur va ishonchlariga borib taqaladi.

Ma'lumki, Sharq adabiyoti tarixining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an'ana muhim o'rin egallaydi. Shoirilar salafлари ijodiy merosiga murojaat qilar ekanlar, avvalo, o'z estetik qarashlariga mos, ko'ngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan

uyg'un keladigan asarlarni maqbul ko'rganlar. Yana bir tomoni, o'rta asrlar estetikasi me'yoriy xarakterda bo'lib mavzular ko'lami hamda janrlar tabiati avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqe bo'lgan va bu holat o'sha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu Sharq adabiyoti namunalari originallikdan xoli, adabiy an'analar doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab bo'lmasligi kerak. Chunki har bir shoir ko'hna mavzuga murojaat etar ekan uni ma'lum darajada bo'lsa ham zamonasi bilan bog'lashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g'oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli, bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda, har ikki ijodkorning mushtarak yoxud xos jihatlarini ko'rsatish bosh mezon bo'lishi shart.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli (forisiy tildagi taxallusi Foni) meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar ob'yektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Shu o'rinda ayni masalani maxsus o'rgangan tojik adabiyotshunosi, akademik Abdug'ani Mirzoyevning "Foni va Hofiz" maqolasidan quyidagi ko'chirmani keltirishni maqbul topdik: "Umuman, Alisher Navoiyning mana shu ikki javobiya g'azalida yangi ma'no va nozik badiiy tasvir ma'lum darajada ko'p va mahorat bilan ishlatilgan bo'lib, ularni XV asrning ikkinchi yarmidagi butunlay mustaqil va birinchi darajali fors-tojik she'rlariga aylantirgan. Bu holat "Foni" devonida tasodifiy bir hodisa emas. Alisher Navoiyning fors-tojik she'riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko'rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g'azallarining har birida, ma'lum darajada, aniq ko'rish mumkin".[1] Demak, shoirning forsiy tildagi merosi fors adabiyotining eng yuksak namunalari bilan bellasha oladi. Foniyning Abdurahmon Jomiy g'azallariga yozgan tatabbularini izchil muqoyasa etgan boshqa bir tadqiqotchi Alisher Shomuhamedov ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.[2]

Umuman olganda, Foni forsiy tilda deyarli barcha janrlarda, jumladan, qasida janrida ham go'zal badiiyat namunalari yaratgan. Shoirning qasidolari navoiyshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

Alisher Navoiy asarlaridagi ko'pchilik hikoyatlari ular qaysi manba asosida ishlangan bo'lishiga qaramay g'aroyib badiiy hususiyatlari bilan xalq hikoyatlariga uyg'unlashib ketadi.

Anushirvoni odil sharq xalqlari adabiyotida keng o'rin olgan an'anaviy obrazlardan biridir. Anushirvon (531-589) sosaniy shaharlarida bo'lib shon shavkati bilan shuhrat qozongan edi. Tarix zaminida adabiyot olimiga o'tgan Anushirvon yarim tarixiy, yarim afsonaviy qaxramon tusini olib odillikning ramzi sifatida talqin qilinadi. U haqidagi hikoyatlar "Hayratul abror" va "Tarixi muluki Ajam" asarlaridan ham o'rin olgan.

"Tarixi muluki Ajam"dagi hikoyalaming birida bog' sotgan va bog' olgan kishilar o'rtasidagi muammoli holatning Anushirvon tomonidan aql va zakovat odillik bilan hal etilishi ko'rsatilsa, ikkinchi xikoyada Anushirvon insof va adolatning homiysi sifatida gavdalanadi.

Bu hikoyatlar ko'pdan -ko'p xalq ertaklaridagi " Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonda bir odil podsho bo'lar ekan" deb boshlanuvchi an'anaviy syujet va obrazlarini eslatadi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan folklor ildiziga bog'landi.

Shunindek adibning "Lisonut-tayr" dostonidagi hikoyalar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Dostonda 63 hikoyat jamlangan bo'lib bu hikoyatlarining ko'pchiligi xalq ijodi tasirida vujudga kelgan shu nuqtai nazardan qaraganda "Lisonut-tayr"dagi "Majnunul xalq" hikoyalari xalq latifalari uslubida yaratilgani bilan ajralib turadi. Bu hikoyatda o'zini xudo yo'lga bag'ishlagan devonaning sarguzashtlari xazilnoma usulida hikoya qilinadi. Ushbu hikoyaga asos bo'lgan syujetning boshqacha varianti shu kunga qadar ham xalq latifasi sifatida yashab kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami. 7-tom. «Xamsa», «Hayrat ul-abror»
2. 2.B.Qosimov va boshqalar. O'zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik. T.-2001
- 3.N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. "O'qituvchi" T.-1965
- 4 Q.Yo'ldashev va boshqalar. Adabiyot.